

## Tajriba Guruhidagi Sigirlarning Laktatsiyasining Kechish Xususiyatlari

**M. Nortasheva<sup>1</sup>, Sh. Suyunov<sup>2</sup>, M. Bekqulov<sup>3</sup>, M. Tuyg'unov<sup>4</sup>, K. Zulfiqarov<sup>5</sup>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sigirlarning sutfondlik koeffitsientini aniqlash to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlar tahlili bayon ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sutfondlik, sut yog‘i, oqsili, sut chiqimi, sut miqdori, doimiylik koeffitsienti

Tajriba uchun o‘xshashlik asosida, genetik kelib chiqishi, jinsi, yoshi bo‘yicha bir xil bo‘lgan qora-ola golshtin va simmental zotlariga mansub ikkinchi tugimdagisi sigirlardan 15 boshdan 30 bosh tanlangan. Sigirlarni ishlab chiqarish tipi, naslchilik ishlarining natijalariga asosan ko‘z bilan chamalab baholash va sutfondlik koefisientini aniqlash orqali ajratilgan.

Sigirlarning sutfondlik koeffitsientini aniqlash, ularni mahsuldarlik ko‘rsatkichlariga qarab baholashda va sigirlarni sut mahsuldarligi bo‘yicha tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham tadqiqotlarimizda ushbu ko‘rsatkich hisoblab chiqilgan va 1-jadvalda havola qilingan.

1-jadval ma’lumotlarini tahlili shundan dalolat beradiki, laktatsiya mobaynida olingan sut miqdori bo‘yicha, II tajriba guruhidagi ikkinchi tug‘umdagisi o‘z tengqurlari, I tajriba guruhidagi sigirlarga nisbatan ustivorlik qilishgan. Xuddi shuningdek, sigirlarning 3 oylik laktatsiyadagi tirik vazni bo‘yicha ham, II guruh hayvonlari foydasiga 5,6 kg ni tashkil qilgan.

Ma’lumki, sigirlarning sutfondlik koeffitsienti olingan sut miqdorini, sigirlarning tirik vazniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Bizning tadqiqotlarimizda, I tajriba guruhidagi sigirlarni sutfondlik koeffitsienti 924,4 kg ga teng bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich II guruhdagi sigirlarda 932,9 kg ni tashkil qilgan. Farq II guruh sigirlari foydasiga 8,5 kg yoki 0,9 foizga tengdir. Shuni ta’kidlash lozimki, har 100 kg ga to‘g‘ri kelgan sut miqdori konstitutsiya tiplaridan qa’tiy nazar har ikkala guruhda ham yuqori darajada bo‘lgan.

Har 100 kg tirik vazniga hisobiga ishlab chiqarilgan 4 % li sut miqdori tajriba guruhlaridagi sigirlarga shunga mutanosib ravishda: 887,4 va 897,9 kg ga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha guruhlararo farq, II tajriba guruhidagi sigirlar foydasiga 10,5 kg yoki 1,2 foizni tashkil qilgan.

Har 100 kg tirik vazniga to‘g‘ri keladigan sut yog‘i chiqimi va sut oqsili chiqimini hisoblash ham muhim hisoblanadi, shularni e’tiborga olib ushbu ko‘rsatkichlar aniqlangan. Shuni ta’kidlash lozimki, ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlararo farq sezilarli darajada bo‘lmagan va tegishlichcha 0,4 va 1,8 kg ga teng bo‘lgan.

### 1-jadval Tajriba guruhlaridagi sigirlarning sutfondlik koeffitsienti, (n=10)

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar			
	I		II	
	X±S <sub>x</sub>	C <sub>v</sub> ,%	X±S <sub>x</sub>	C <sub>v</sub> ,%
Sut miqdori, kg	4647,0±48	7,12	4741,7±45	6,74
Tirik vazni, kg	502,7±6,0	4,52	508,3±5,7	3,9
Sutfondlik koeffitsienti, kg	924,4±22,41	8,20	932,9±22,04	14,9
Har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan:				
4 % li sut, kg	887,4±20,9	5,6	897,9±14,8	4,9

<sup>1</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

<sup>2</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

<sup>3</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

<sup>4</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti


<sup>5</sup> Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti



Sut yog'i chiqimi, kg	35,5±0,68	5,8	35,9±0,94	5,8
Sut oqsili chiqimi, kg	33,8±1,11	5,6	32,0±0,95	5,1

Tajriba guruhiidagi sigirlarning sutfordlik koeffitsientini mantda keltirilgan 1-tasvirdan ham bilish mumkin.


Tadqiqotlarimizda olingan ma'lumotlar O.Basanov, A.Ershova (2005), M.E.Ashirov (2017), J.Xo'jamovlarning (2018) ilmiy ishlarida olingan natijalariga mos kelishi bilan ajralib turadi.



1-tasvir. Tajriba guruhidagi sigirlarning sutfordlik koeffitsienti

Shunday qilib, sigirlarning konstitutsiya tiplaridan qa'tiy nazar, har 100 kg tirik vazniga ishlab chiqarilgan sut miqdori, 4 % li sut, sut yog'i chiqimi va sut oqsili chiqimi har ikkala tajriba guruhidagi sigirlara yuqori darajada bo'lgan. Bu esa sigirlardan foydalanish samarali va yuqori mahsuldor podalar yaratishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, sigirlarning sog'in davrining kechish xususiyatlarini baholashda va tahlil qilishda, laktatsiya egri chizig'ini o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagi 2-tasvirda ifodalangan. Tasvirdan ko'rinishicha har ikkala tajriba guruhiidagi sigirlar laktatsiyasining oltinchi oyigacha yuqori darajadagi sut mahsuldorligini saqlab, shundan so'ng uning oyma-oy pasayish tendetsiyasi kuzatilgan.



2-tasvir. Tajriba guruhiidagi sigirlarning laktatsiyasi egri chizig'ini oylar kesimida o'zgarishi.



**Xulosa.** Ma'lumki, sigirlarning sog'in davrining kechish xususiyatlarini baholashda va tahlil qilishda, laktatsiya egri chizig'ini o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajriba guruhlariдан sigirlarning laktatsiyadan qat'iy nazar, har 100 kg tirik vazni hisobiga sut maxsuloti chiqimi yuqori darajada bo'ldi. Bunday sigirlardan foydalanish samaradorligini oshirishda hamda yuqori sermahsul podalar yaratishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

### Foydalnilgan adabiyotlar.

1. Sobirov P.S., Kaxarov.A.K., Do'stqulov S.D. CHorva mollarini urchitish. Toshkent. 2003. 352 b.
2. M.X.Dusmuxammedova, U.N.Nosirov. Toshkent atrofida chorvachilik fermer xo'jaliklar podasini golshtinlashtirish va sersut qilish texnologiya usullarida sut maxsulorligini oshirish. //Zooveterinariya. 2012 № 7. 30 -31 b.
3. Nosirov U.N. va boshqalar. SHaxsiy, yodamchi va dehkon xo'jaliklarida zoti yaxshilangan maxalliy yosh qoramollarning o'sish va rivojlanishi. //Zooveterinariya. 2012. №11. 33-35 b.
4. Nortasheva, M., & Narbayeva, M. K. (2022). QORAMOLLARNI PODANI QAYTA TO 'LDIRISH XUSUSIYATLARI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMUY JURNALI, 605-607.
5. Nortasheva, M. A., & Nurmuhamedov, S. (2022). O 'RGANILAYOTGAN SIGIRLAR ELININING MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 1-3.
6. Nomozov, H. I., Nortashyeva, M., & Narbayeva, M. K. (2023). DEPENDENCE OF LIVE WEIGHT OF MILK YIELD OF HOLSTEIN COWS. *Modern Science and Research*, 2(5), 424-428.
7. Nomozov, H. I., Nortasheva, M., & Narbayeva, M. K. (2023). GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLARNING HAR 100 KG TIRIK VAZN HISOBIGA SUT MAHSULOTI ISHLAB CHIQARISH KURSATKICHLARI. AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMUY JURNALI, 25-30.
8. Nortasheva, M. A., Shomatov, S., & Xasanova, U. (2022). TAJRIBA GURUHLARDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI KO 'RSATKICHLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 28-30.

